

XORAZM QISHLOQ VA SHAHAR AHOLISINING IJTIMOIY TURMUSH DARAJASI VA MUAMMOLARI (1925-1941-YILLAR)

Allanazarov Sirojbek Bekchan o'g'li

*Urganch davlat pedagogika instituti Registrator ofisi boshlig'i,
mustaqil tadqiqotchi*

СОЦИАЛЬНЫЙ УРОВЕНЬ ЖИЗНИ И ПРОБЛЕМЫ СЕЛЬСКОГО И ГОРОДСКОГО НАСЕЛЕНИЯ ХОРЕЗМА (1925-1941 гг.)

Алланазаров Сирожбек Бекчанович

Ургенчский государственный педагогический институт

SOCIAL LIVING STANDARD AND PROBLEMS OF THE RURAL AND URBAN POPULATION OF KHOREZM (1925-1941)

Allanazarov Sirojbek

Urgench state pedagogical institute

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1925-1941-yillarda O'zbekiston SSR qishloq va shaharlaridagi ijtimoiy jarayonlar, xususan, maorif, savodsizlikni tugatish tadbirlarining amalga oshirilishi, xotin-qizlar ozodligi, tibbiyotning ahvoli Xorazm misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, maorif, savodsizlik, tibbiyot, maktab, to'liqsiz o'rta maktab, kollektivlashtirish, partiya, kurslar, xotin-qizlar.

Аннотация. В статье анализируются социальные процессы в селах и городах Узбекской ССР в 1925-1941 годах, в частности, реализация мер по ликвидации неграмотности, освобождение женщин, состояние медицины на примере Хорезма.

Ключевые слова: Хорезм, образование, неграмотность, медицина, школа, неполная средняя школа, коллективизация, партия, курсы, женщины.

Annotation. This article analyzes social processes in the villages and cities of the Uzbek SSR in 1925-1941, in particular, the implementation of measures to eliminate illiteracy, women's liberation, and the state of medicine using the example of Khorezm.

Keywords: Khorezm, education, illiteracy, medicine, school, incomplete secondary school, collectivization, party, courses, women.

O'zbekiston zaminida kechgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar tarixi, sovetlar yuritgan mafkura siyosatining jamiyat rivojiga ko'rsatgan salbiy oqibatlarini, shuningdek, o'lkadagi ijtimoiy hayot, maorif, sog'liqni saqlash sohalari bilan bog'liq muammolar, sovet hukumatining ijtimoiy sohadagi islohotlarining natijalari kabi masalalar bugungi kun tarixchilari oldidagi ustuvor mavzular sifatida keng o'rganilmoqda. Tadqiqotlar natijasida erishilgan ilmiy yangiliklar bu masalalar yuzasidan tegishli

xulosalar chiqarish hamda ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bermoqda.

O'zbekiston hukumati tomonidan mustaqillikka erishilgach, o'tmish tarixini qayta tiklash, sovetlar davrida soxtalashtirilgan hamda mafkuraviy g'oyalar asosida yozilgan tarixni xolis va haqqoniy yoritish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Ayniqsa, so'nggi yillarda ochiqlik va oshkoralik yillarida boy tariximizni xolislik nuqtai nazaridan birlamchi manbalar, arxiv hujjatlari asosida tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan



ORCID: 0000-0002-2603-5346

E-mail:

sirojbek.allanazarov@bk.ru

sovetlar hukmronligi davrida O'zbekiston SSRning tarkibiy qismi bo'lgan Xorazmning XX asr boshlaridagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar tarixini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1925-yil 2-dekabrda O'z SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining favqulodda sessiyasi "Yer va suvni natsionalizatsiya qilish to'g'risida"gi dekretni qabul qildi [11]. Islohotni amalga oshirilish bo'yicha olib borilgan targ'ibot-tashviqotlar natijasida faol chorikor, mardikorlar va yersiz dehqonlar toifalaridan iborat bo'lgan yer-suv islohotiga ko'maklashadigan turli yacheykalar tuzildi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga zarur shart-sharoit yaratib berish, qishloqlarda feodal munosabatlar qoldiqlarini tugatish va dehqon xo'jaliklarining yanada o'sishi va rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishdan iborat bo'lgan yer-suv islohotining tagida qishloqlarni yangi sotsializm qurilishiga tayyorlash yotar edi.

Butun O'zbekiston bo'yicha 1926-yil 17-dekabrda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olishda Xorazm okrugida jami aholi 314396 kishi, shulardan shaharlarda 89301, qishloqlarda 284895 kishi ro'yxatga olingan. Bu degani aholining taxminan 11% shaharlarda, 89% qishloqlarda yashaganligini ko'rsatadi. Kollektivlashtirish natijasida boy va o'rtahol dehqonlardan 220 ta ot, 80 ta tuya, 229 ta ho'kiz, jami 605 ta ish hayvoni, 202 ta arava, 1040 ta kunda, paza, o'roq, ketmon, belkurak, 404 ta chig'ir, 2 ta mashina, 1ta nasos, 36 ta moy juvozi, 13 ta guruch juvozi, 80 ta tegirmon, 246 ta turar joylar tortib olinib, musodara qilingan [1, B. 44]. Jami tugatilgan xo'jaliklar soni 532, ulardan tortib olingan yerlar 8992273 tanobni tashkil qilgan. Yollanma mehnatdan foydalanuvchi 20 yoki 40 gektar ekin yeri bor xo'jaliklar, 3 razryaddan katta patentga ega bo'lgan savdo va sanoat xodimlariga qarashli yerlar, qishloq xo'jaligi asbob-anjomlari, uylari, hayvonlari va boshqa mulklari birinchi navbatda tortib olinadigan bo'ldi [19].

Kollektivlashtirish bilan bir qatorda aholini savodli qilish, madaniy oqartiruv jarayonlari ham amalga oshirildi. Shuningdek, O'zbekiston SSR tashkil topgandan keyin sovet hukumati tomonidan maorif ishiga bo'lgan e'tibor to'xtab qolmadi. O'zbekiston SSR hukumati Xorazm okrugida oldin boshlangan savodsizlikni tugatishga, yangi maktablar ochish ishiga alohida ahamiyat qaratdi. 1925-1926-yillarda okrugning Xazorasp, Qo'sh-ko'pir, Yangiariq, Shovot tumanlarida yangi tipdagi

maktablar ochilib, ularda keng mehnatkashlar ommasi o'qishga jalb qilindi. Bu yillarda fabrika, zavod maktablari ochilib, ularda okrug sanoati uchun ishchilar tayyorlana boshlandi. Shu bilan birga mehnatkashlar maktablari soni o'sib bordi. Xorazm okrugida o'qituvchilarning yetishmasligini inobatga olib, O'zbekiston SSR hukumati 1925-1926-yillarda markaziy viloyatlardan 67 ta o'qituvchi yubordi. Mamlakat hukumati okrugdagi diniy maktablarni qayta qurib, yangi tipdagi maktablarga aylantirdi. 1925-1926-o'quv yilida okrugda 1 ta diniy maktab yangi usul maktablarga aylantirildi. Bu davrga kelib, aholi uchun savodsizlikni tugatish kurslari va yangi xil maktablar bilan bir qatorda mutaxassislar tayyorlovchi o'rta maxsus bilim yurtlari – Xiva xotin-qizlar texnikumi, Xiva qishloq xo'jalik texnikumi, musiqa maktabi, Xo'jayli pedagogika bilim yurti va boshqalar ham ochildi [2, B. 50].

Maorif masalasi bilan bir qatorda xotin-qizlar masalasiga ham alohida ahamiyat berildi. Xususan, Xorazm viloyati davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarda aks etishiga ko'ra Xorazm inqilobiy qo'mitasining 1925-yil 8-martdagi 18/5-sonli qarori bilan oblast mehnat boshqarmasiga bayram munosabati bilan xotin-qizlarga shu kuni ishdan soat 12 da ruxsat berish topshirilgan [16].

1926-yilning sentabr oyida bo'lib o'tgan III o'lka partiya yig'ilishida bolsheviklar partiyasi xotin-qizlarni ozod qilish masalasiga e'tibor qaratib, O'zbekiston Kompartiyasi tomonidan "Hujum" nomi ostida ijtimoiy-siyosiy kompaniyasini o'tkazish maqsadida 1926-yil dekabr oyida respublika va viloyatlarda, 1927-yildan boshlab okrug va rayonlarda xotin-qizlarni ozod qilish komissiyalari tuzildi. Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarishning eng muhim vazifalaridan biri bu paranjiga qarshi kurash bo'lgan [13]. Xususan, 1927-yilning oktabr oyida O'zbekiston Kompartiyasining "Xotin-qizlar o'rtasida paranji tashlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi maxsus qarori qabul qilindi.

Shu yilning 8-mart kuni okrugning Xonqa tumanida joylashgan paxta tozalash zavodi oldidagi maydonda bo'lib o'tgan mitingda partiya, sovet faollaridan Xudoyberganov, Saidov, Avezovlar nutq so'zladilar. Shundan so'ng Xadicha Yoqubova so'zga chiqib, xotin-qizlarni paranji tashlashga da'vat etdi va birinchi bo'lib paranjini boshidan olib gulxanga uloqtirdi. Shundan keyin Chinni Sobirova, Saro Musaeva, Onajon Matrasulova kabi o'nlab xotin-qizlar ham paranjilarini yonib turgan gulxanga

tashladilar [10, B. 69]. Xivadan Norjon Abdusalomova, Saodat Salimova, Sharifa Urazova, Fotima Bekmuhamedova, Onabibi Muratova, Aymanjon Boltaeva, Onabibi Ollayorovalar birinchilardan bo'lib paranjidan voz kechdilar [12, B. 15]. Ammo xotin-qizlarni paranjidan xalos etishga qaratilgan tadbirlar oson kechmadi. Bir qator mutaasib kishilar tomonidan bu kabi jarayonlar qattiq qarshilikka uchradi. Buning natijasida ko'pgina xotin-qizlar qurbon bo'ldilar. Xususan, Xivadan Jamila Idrisova, Onabibi Sapayeva, Xanifa Abdullayeva kabilarni misol keltirish mumkin [12, B. 13].

Qishloq xo'jaligida kollektivlashtirish kechayotgan bir davrda xotin-qizlarning roli ham anchagina sezildi. Misol uchun 1924-yilda Yangiariq rayonining Ostona qishloq Kengashini birinchi Kengash raisi Rimajon Ollaberganova, 1929-yilda "Shodlik" kolxozini tashkil etgan To'xtajon Abdirimovalarni keltirish mumkin. Keyinchalik qishloqda ularning safi yanada kengayib, Qurbonjon sho'ro, Soliya Sodiqova va So'najonlar ham ko'p yillar davomida el-yurt ravnaqi yo'lida mehnat qilganlar [10, B. 39].

O'zbekiston SSR tarkibiga kirgan Xorazm okrugida ham dastlabki davrlarda kadrlar yetishmasligi kuzatildi. Shu sababli ham mamlakatning markaziy shaharlaridan kadrlar yuborib turildi. Xususan, 1925-yilning 3-martida Xorazm muvaqqat inqilobiy qo'mitasining qarori bilan shu yilning 28-fevral kuni oblastga Toshkent shahridan yuborilgan 7 nafar xodimlar turli lavozimlarga va joylarga 1-mart sanasidan boshlab ishga yuborilgan [18].

Arxiv ma'lumotlarining guvohlik berishicha, 1925-yilda Xiva shahrida epidemik holat yuzaga kelgan. Shaharda sog'liqni saqlash bo'limlari boshchiligida maxsus otryadlar tuzilib, epidemik holatga qarshi kurash ishlari olib borilgan. Buning uchun sog'liqni saqlash bo'limiga Xorazm muvaqqat qo'mitasining 1925-yil 3-oktabrdagi 1-sonli buyrug'i bilan budjetdan 1500 rubl miqdorida mablag' ham ajratilgan [17].

1926-yilda okrugda 160 o'rinli 4 ta shifoxona mavjud bo'lib, qishloqlarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun Hazorasp va Gurlanda 25 o'rinlik shifoxona ochilgan. Joylarda 13 ambulatoriya kabinetlari aholiga tibbiy yordam ko'rsatgan. Okrugda 24 vrach, 23 feldsher, 5 akusher va 3 tish shifokori ishlagan [3, B. 119].

Sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'ni yildan yilga oshishi natijasida har yili shifoxonalar va boshqa davolash muassasalari soni osha bordi. Bu sohada Xiva va Urganch shahar sovetlari tomonidan katta ishlar bajarildi. 1926-yilda Urganchda 4 davolash muassasasi, shu jumladan poliklinika, ambulatoriya, sog'lomlashtirish punkti, tez yordam stansiyasi 18-100 odamga xizmat ko'rsatdi. 1928-yilda 65 o'rinda 10 ta shifoxona 4120 odamga xizmat ko'rsatildi. 1930-yilda – 18 shifoxonada 100 o'rinda 80 ming odam davolandi [3, B. 120].

Sobiq SSSR MIQ va Xalq Komissarlari sovetining 1930-yil 30-avgustdagi "Umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu qarorga asosan barcha joylarda 1930-1931- o'quv yilidan boshlab 8-10 yoshdagi bolalar uchun 4 yillik boshlang'ich maktab hajmida umumiy ta'lim joriy etildi. 1932-1933-o'quv yilida Xorazm okrugida 202 ta boshlang'ich maktab, 4 ta to'liqsiz o'rta maktab mavjud edi [14, B. 111].

VKP(b) MQ hamda SSSR Xalq komissarlari soveti 1935-yil 3-sentabrda "Boshlang'ich, o'rta va to'liqsiz o'rta maktablarda o'quv ishlarini uyushtirish va ichki tartib to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda keng o'qituvchilar ommasini malakasini oshirish masalasi belgilanib, unga ko'ra Xorazm okrugida ham bu jarayonlarni amalga oshirishda kechki pedagogika bilim maktablarida o'qituvchilarning malakasini oshirish belgilangan. Xususan 12 sinflik Xiva kechki pedagogika maktablariga shu vaqtda 220 ta o'quvchi jalb etilgan. Biroq maktablarda o'qitish ishlari ko'ngildagidek bajarilmaganligi sababli o'zlashtirish ko'rsatgichlari yarim yillik hisobotlarga ko'ra 83 foizni tashkil etgan. Misol uchun Irdimzon qishloq sovetidagi maktabda o'qitish ishlari sust kechib, maktabga savodsiz o'qituvchilar jalb etilganligi sababli o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 72 foizni tashkil etgan [4].

Okrug partiya qo'mitasining 1936-yilning 3-yanvar kungi qarori bilan Xorazmda radio ishga tushiriladi. Unga shu yil 221,922 so'mdan iborat mablag' ajratilgan. Birinchi eshittirish 15-yanvar kuni bo'lib, efir vaqti 2 soatni tashkil etgan. Shu yilning fevral oyidan boshlab esa eshittirish vaqti 3-4 soatga oshirilgan. Radioda okrug teatrining san'atkorlari, havaskorlarning kuy-qo'shiqlari doimiy ravishda e'lon qilib borilgan. Eshittirishda qatnashgan san'atkorlarga soatiga 80 so'mdan pul to'langan [5].

Sovetlar davrida komsomol tashkilotlarining tashkil etilishi va ularga yoshlarni jalb etishga alohida e'tibor berilgan. 1936-yilgi ma'lumotlarga qaraganda birgina Shovot rayoni komsomol qo'mitasining 14 ta quyi qo'mitasi va 48 ta tashkilotchilari bo'lib, ularda 1193 ta komsomolchi a'zolari bo'lgan. Ulardan 814 tasini erkaklar, 352 tasini xotin-qizlar tashkil etgan. A'zolarining savod masalasidagi ahvoliga to'xtaladigan bo'lsak, ularning 467 tasi savodli bo'lsa, chalasavodlar 438 nafarni tashkil qilgan. Achinarlisi, komsomolchilar orasida umuman savodsizlar ham mavjud bo'lib, ularning soni 288 nafarni tashkil etgan.

Komsomol tashkilotlari tomonidan yoshlarning savod darajasidan kelib chiqqan holda 3 tipdagi to'garaklar tashkil etilgan. Xorazm okrugida 1-tipdagi to'garaklar 145 ta bo'lib, ularga savodsiz 4447 nafar yoshlar jalb etilgan. Ikkinchi tipdagi to'garaklarning soni esa 349 ta bo'lib, ularga 9195 nafar yoshlarlar jalb etilgan bo'lsa, ikki tip bo'yicha jami komsomol tashkilotlari a'zolari 6952 nafarga yetgan edi. Bu tipdagi to'garaklarga 268 nafar faol komsomolchilar o'qitish uchun jalb etilgan. Bundan tashqari rayon qo'mita sekretarlari ham bu ishlarga jalb etib borilgan [6].

Komsomol tashkilotlari orasida ham savodsizlik eng katta muammolardan biri bo'lgan. Masalan birgina Urganch rayonida 1935-yilda savodsiz komsomolchi 1301 nafar a'zodan 388 tasi savodsiz edi. Okrug bo'yicha 11535 nafar komsomolchining 2421 nafar savodsiz bo'lgan [7].

Rayonlarda tashkil etilgan savodsizlik kurslarida o'qitish ham ko'ngildagidek kechgan deb bo'lmaydi. Masalan 1936-yilda faoliyat olib borayotgan Hozorasp rayonining Mutpiri qishlog'idagi "Sotsializm" kolxozidagi savodsizlik kursida 35 nafar o'quvchilar bo'lsa, ularga o'qishlar doimiy ravishda ham tashkil etilmasdan, bu masalaga mas'ullarning e'tiborsizligi tufayli darslarning ko'p hollarda qolib ketishiga sabab bo'lgan. Xuddi shunday holat Xonqa rayonining "Mehnat" kolxozida ham kuzatilib, saqlanib qolgan hujjatlarning guvohlik berishicha, 1935-yilning 20-dekabridan 24-dekabr kunlari umuman darslar o'tkazilmasdan qolib ketgan. Urganch rayonining Qatag'on qishloq sovetida ham tashkil etilishi kerak bo'lgan 3 ta savodsizlik kurslari tashkil etilmasdan sustkashlikka yo'l qo'yilgan. Boshlang'ich maktablarda ham o'qitish yuqori bo'lmasdan, maktabdagi 3-4-sinflarda o'quvchilar 30-35 nafar

bo'lsa-da, darslarga faqat 10-15 nafarigina qatnashib kelgan [8]. 1936-yilda Okrug ijroqo'mida qishloq sovetlarining raislari uchun 2 oylik kurslar tashkil etilib, ularda mahalliy boshqaruvdagi kadrlarni bilim darajasini oshirishga qaratilgan edi. Uning dastlabki davrida 60 nafar raislar qabul qilinib, o'qitilgan [9].

Urushgacha bo'lgan davrda ham mamlakatning boshqa hududlari singari viloyatda aholi orasida savodsizlikni tugatish masalasi dolzarb masala sifatida kun tartibida turaverdi. Biroq rayonlarda ochilgan savodsizlikni tugatish maktablarining ayrimlari yetarli e'tiborning yo'qligi, o'qituvchilarning yetishmovchiligidan yopilib ketgan. Xususan, Mang'it rayonidagi Xotamshayx qishlog'idagi Kuybeshev nomli kolxoz a'zolaridan 150 nafaridan ortig'i savodsiz bo'lishiga qaramasdan bu yerda savodsizlikni tugatish masalalarida oqsoqliklar yuzaga kelgan.

Shovot rayonining Bo'yirchi, Xitoy, Beshmergan qishloq sovetlarida 40 ga yaqin savodsizlikni tugatish maktablari tashkil etilgan bo'lsa-da, biroq 1940-yilga borib ularning barchasi o'z faoliyatini to'xtatgan [15].

1940-yilning oxirlariga kelib Urganchda 292 o'ringa ega 4 ta shifoxona Xivada esa 205 o'ringa ega 3 ta shifoxona mavjud bo'lgan. Xivada davolash muassasalarining umumiy soni 46 ta, Urganchda 39 tani tashkil qilar edi. Shu yillarda Xorazmda Xiva va boshqa shaharlarning sanitariya holatini yaxshilashga birmuncha ahamiyat berildi [3, B. 121]. Biroq Xorazmda shifokorlarning soni O'zSSRning boshqa oblastlariga nisbatan kam edi. Misol uchun respublikada shu davrda 2818 nafar shifokor ishlagan. Shundan Samarqand oblastida 444 nafar, Buxoroda 117 nafar, Toshkent shahrida 1290 nafar shifokor bo'lgan bir paytda Xorazmda atigi 66 nafar tibbiyot xodimi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatar edi [20].

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Kollektivlashtirish siyosati natijasida boy va o'rtahol dehqonlarning mol-mulki tortib olinishi va ana shu yerlarda kishilar jamoa bo'lib ishlash kerak edi. Yer mulkidan ajralish esa boy va o'rtahol odamlarga yoqmadi. Shuning uchun ham ular tuziladigan jamoa xo'jaliklari kolxozlarga kirishini istamadilar. Shu bois kollektivlashtirish g'oyat qiyin kechdi.

Xorazm hududi 1924-yilda o'tkazilgan milliy hududiy chegaralanishdan keyin O'zbekiston SSR

tarkibiga kiritildi va o'lkahosining savodsizligini tugatish masalasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, qishloq joylaridagi maktablarga e'tiborning sustligi, kadrlarning yetishmasligi savodsizlikning saqlanib qolishiga sabab bo'ldi.

Sovet hukmronligi davrida yoshlarni mafkura siyosatidan kelib chiqib, Marks va Engels, Lenin g'oyalari asosida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Komsomol tashkiloti rahbarlari oldiga yoshlarni bolshevik ruhida tarbiyalash va yoshlardan hukmron partiyaga sodiq xodimlarni yetishtirish asosiy maqsad qilib olingan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Берегин Қ. Хоразм округида меҳнатсиз хўжаликларни тугатиш яқунлари. – Самарқанд: 1930.
2. Билолов Г.М. Хоразмда Халқ маорифи тараккийси. – Т.: Ўзбекистон, 1969.
3. Гойибов М., Жуманиёзов Ш., Абдурахмонов У. Хива шифохонасига 100 йил. Тошкент: «Истикдол нури», 2013.
4. Инқилоб қуёши газетаси, 1936 йил, 6 февраль. №30 (2222)
5. Инқилоб қуёши газетаси, 1936 йил, 18 январь. №14 (2207)
6. Инқилоб қуёши газетаси, 1936 йил, 10 февраль. №33 (2225)
7. Инқилоб қуёши газетаси, 1936 йил, 10 февраль. №33 (2225)
8. Инқилоб қуёши газетаси, 1936 йил, 6 январь. №5 (2197)
9. Инқилоб қуёши газетаси, 1936 йил, 6 февраль. №30 (2222)
10. Нуржонов К., Жуманиёзова М. Хонқа тарихи. – Урганч: Хоразм нашриёти, 2015. – Б. 69.
11. Правда Востока, 1925, 10 декабрь.
12. Рахманов К. Хива – Хоразмнинг билим ва маданият ўчоғи. – Т.: «Фан», 1972.
13. Хасанова Ш.Б. Ўзбек хотин-қизларини “озод қилиш” ёуд “хужум” ҳаракати тарихидан // Ўтмишга назар журнали. – Т.: №10. 2021.
14. Хоразм тарихи.2-жилд. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир М.Матниёзов. – Урганч, 1997.
15. Хоразм ҳақиқати газетаси, 1940 йил 15 август. №190 (3581).
16. Xorazm viloyati davlat arxivi (XVDA), 4-fond, 4-ro'yxat, 1-ish, 28-varaq.
17. XVDA, 4-fond, 1-ro'yxat, 11-ish, 176-varaq.
18. XVDA, 4-fond, 4-ro'yxat, 1-ish, 25-varaq.
19. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R- 90-fond, 4- ro'yxat, 71-ish, 16- varaq.
20. O'zMA, 1619-fond, 22-ro'yxat, 129-yig'majild, 218-varaq.

